

FARG'ONA VILOYATI TUMANLARI SHEVALARIDA  
MODDIY-MAISHIY HAYOT BILAN BOG'LIQ IZOGLOSSALAR  
TAHLILI

*Yoqubjonova Azizaxon Baxodir qizi*

*TerDU 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Areal lingvistika tilshuoslikning hozirgi kunda rivojlanayotgan, keng ilmiy izlanishlar olib borilayotgan sohalaridan biridir. Izoglossalar esa bu yo'nalishning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qism, tushuncha hisoblanadi. Ushbu maqolada Farg'ona viloyati tumanlari shevasi misolida kundalik turmushga oid izoglossalarning qisqacha lug'ati shakllantirilib, ular fonetik, leksik va morfologik tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** areal lingvistika, izoglossa, izofon, izomorf, izoleks, dialekt, fonetik o'zgarishlar, lingvistik geografiya metodi, lingvistik xaritalar.

Areal lingvistika zamonaviy tilshunoslikning tillarning hududiy tarqalishi va ularning o'zaro ta'siri masalalarini o'rganuvchi yo'nalishidir. Areal lingvistika atamasi fanga italiyalik tilshunos olim Matteo Julio Bartole tomonidan XX asrning 40-yillarida kiritilgan. Keyinchalik bu soha ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi va rivojlantirildi. Xususan, V.Radlov, V.Abogorodinskiy, N.A.Baskakov, o'zbek tilshunosligida A.B.Jo'rayev, Q.Mamajonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova kabi olimlar bu sohada ilmiy izlanishlar olib borganlar. Masalan, A.B.Jo'rayevning

“O'zbekzabon mintaqani areal o'rganishning nazariy asoslari” (Toshkent, “Fan” , 1991.) monografiyasida areal lingvistikaning asosiy tushunchalari izohlangan, lingvoareal tadqiq maqsadi va usullari sharhlangan.

Muayyan hududda tarqalgan sheva va lahjalarni o'rganish, ilmiy jihatdan tahlil etish, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, shevalarning tarqalish chegaralarini o'rganish areal lingvistikaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Bu yo'nalishda izlanish qilish uchun esa lingvistik geografiya metodi asosiy metodlardan biridir. Lingvistik geografiya metodi – bu til hodisalarining (tovushlar,

so'zlar, grammatik shakllar) hududlarda tarqalishini xaritalar yordamida o'rganuvchi tadqiqot usulidir. Ushbu metod orqali shevalar hududlar kesimida o'rganilib, xaritalashtiriladi va izoglossalar tahlil qilinadi.

Izoglossa termini yunoncha “isoglosse” so'zidan olingan bo'lib, isoste-kislik, maydon, glosse- nutq, til so'zlari birikuvidan hosil bo'lgan. Tilshunoslikka bu atama birinchi bo'lib XIX ars o'rtalarida latish tili bo'yicha tadqiqotlar olib brogan August Blenshteyn tomonidan kiritilgan. Areal lingvistikada har qanday til hodisasi o'zining tarqalish maydoni (areali)ga ega. Izoglossa ushbu areallarni ajratib, bir- biridan farqlab turuvchi chiziq, hodisadir. Izoglossalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Fonetik izoglossalar- izofonlar; Morfologik izoglossalar- izomorflar; Leksik izoglossalar- izolekslar.

Maishiy turmushda ishlatiladigan izoglossalar kiyim-kechak, oziq-ovqat, kundalik ishlatiladigan buyumlar, maishiy jihozlar va boshqa qator birliklar nomini o'zida jamlaydi. Bu nomlar hududlar kesimida bir-biridan farqlanadi. Biz ushbu maqolada maishiy turmush, oziq-ovqat, kiyim-kechak, xo'jalik buyumlari bilan bog'liq izoglossalarning Farg'ona viloyatidagi hududlar kesimida o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni tahlilga tortdik. Bunda ushbu arealdagi izoglossalar quyidagicha tasniflab o'rganildi:

Uy-ro'zg'or va maishiy turmushda ishlatiladigan izolekslar: beshlik-panshaxa( Bag'dod tumani), yengicha- rapida( Bag'dod tumani), paqir- chelak, so'vzitaxta- taxtakach( Bag'dod tumanining ayrim qishloqlarida),shoti-narvon, charqi- osh solinadigan tovoq, lagan, bolish- yostiqliq;

Uy-ro'zg'or va maishiy turmushda ishlatiladigan izofonlar: ketman-ketmon (Bag'dod tumanida), chaynak- choynak, piyala- piyola, kavish yoki kalish- kovush (Bag'dod tumanida), shipirgi- supurgi, yina, iyna- igna, yip- ip, kamgir- kapgir;

Oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq izolekslar: patinjon- baqlajon, kavartak-do'lma, qiyom- murabbo, g'o'ra- dovuchcha(pishmagan, xom o'rik);

Oziq-ovqat nomi bilan bog'liq izofonlar: qaymaq- qaymoq, gilasi- gilos, surguruch- shirguruch, qatiq- qotiq, pamildori- pomidor, kartishka- kartoshka, saryag'- saryog', shaptoli- shaftoli, nak- nok, holvetar- holavaytar (Bag'dod tumanida), tuqum- tuxum;

Kiyim-kechak nomlari bog'liq izolekslar: yaxta, yakta- erkaklar ko'ylagi(Bag'dod va Buvayda tumanlarida), chitdurra, chit - durra, suv etik-yomg'irda kiyiladigan etik,

Kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq izofonlar: ko'ynak- ko'ylak, massi-maxsi, belvoq- belbog', to'pli, to'fli,to'pli - tufli, paypaq- paypoq, tuyma-tugma,kamzil, kamzir- kamzul, kovish, kavish, kalish- kovush;

Izomorflar, ya'ni morfologik izoglossalar : - ga jo'nalish kelishigi

qo'shimchasi -g'a tarzida qo'llaniladi. Masalan, uyga keldi birikmasi uyg'a keldi tarzida;

-da o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi –ta tarzida ishda emas, ishta tarzida;



-dan chiqish kelishigi qo'shimchasi –tan tarzida: ishdan qaytdi emas , ishtan qaytdi tarzida;

Izofon, izomorf va izolekslar izoglossalarning ixtisoslashgan turlari bo'lib, ular til tizimidagi o'zgarishlarning hududiy o'sishini ko'rsatib beruvchi tilning asosiy belgilaridandir. Izofon- ma'lum bir fonetik hodisa( tovush tushishi, ortishi

yoki almashishi) tarqalgan hududning chegarasini yoki shevalar kesimidagi fonetik farqlanishni ko'rsatuvchi chiziqdir. Ular dialektlarni yirik guruhlarga ajratishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ular tilning tarixiy taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi omil sifatida ham ahamiyatlidir. Chunonchi, izofonlar ko'p kuzatiladigan chekka hududlarda tilning qadimiy fonetik xususiyatlari saqlanib qoladi. Bu esa

olimlarga tilning bir nech asr oldingi ko'rinishini o'rganish va tadqiq etish imkonini beradi.

Izomorflar tilning barqaror xususiyatlarini o'zida muhrlaydi. Chunki morfologik sath leksik yoki fonetik sathga nisbatan sekin o'zgaradi. Yana izomorflar nafaqat bir til ichidagi farqlarni, balki turli tillarinning bir-biriga yaqinlashuvi va aralashuvini ham ko'rsatadi, aniqlashga yordam beradi.

Izolekslar yoki leksik izoglossalar muayyan bir so'z yoki tushunchani ifodalovchi birliklardir. Ma'lumki, tilning lug'at tarkibi tildagi o'zgarishlar va o'sishlarni ko'rsatuvchi asosiy "oyina"dir. Ular yordamida til taraqqiyoti natijasida yo'qolib ketgan yoki saqlanib qolgan lug'aviy birliklar aniqlanadi, adabiy til lug'at boyligini shakllantirishga ham katta hissa qo'shadi. Tilshunoslar adabiy til uchun so'z tanlashda izolekslarga tayanishadi. Eng keng arealni qamrab olgan yoki tushunarli bo'lgan leksik birliklar adabiy til lug'atiga kiritiladi. Leksik izoglossalar orqali tilshunoslar nafaqat tilning ichki rivoji,

balki u bilan bog'liq bo'lgan jamiyat rivoji, madaniyati va tarixini ham o'rganadilar. Shu jihatdan izoglossalar faqatgina areal lingvistika uchungina emas, balki tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalaridan bo'lgan etnolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika kabilar uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, izoglossalar tilshunoslikning tarixini, bugunini aks ettiruvchi ko'zgu, til taraqqiyotinig eng "jonli" qismidir. Xususan, izofonlar tilning akustik-artikulyatsion, izomorflar strukturgrammatik, izolekslar esa nominativ-lug'aviy manzarasini geografik jihatdan muhrlaydi. Tilshunoslikda bu ko'rsatkichlarni kompleks tadqiq va tahlil qilish o'zbek tili dialektlarining hududiy chegaralari hamda ularning tarixiy jarayonlarini ham yoritishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi.- Toshkent : Nodirabegim, 2021.
2. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi- Toshkent, 2004.
3. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? "O'qituvchi", T.:1972
4. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. "O'zbek dialektologiyasi". Toshkent. "O'qituvchi". 1978.
5. [http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html#\\_6](http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html#_6)
6. [http://www.ut.uz/eng/today/europe\\_recognizes%20her\\_%20discovery.mg](http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes%20her_%20discovery.mg)
7. <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>